



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	



# O'ZBEKISTONNING ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA O'ZBEK-RUS BILINGVIZMI SHAROITIDA O'QUVCHILAR NUTQINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Qurdasheva Bonu Bexzod qizi

Angren universiteti "Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi"  
 1-kurs magistri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zbek va rus tillari qorishiq bo'lgan muhitdagi nutqiy rivojlanish jarayonlari psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bilingvizm faqat ikki tilni bilish emas, balki inson ongida ikki xil lisoniy tizimning o'zaro ta'siri, uyg'unlashuvi va ayrim holatlarda to'qnashuvi bilan xarakterlanuvchi murakkab psixolingvistik hodisa sifatida talqin etiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlarini o'rganish, ularda lisoniy kompetensiyalarni to'g'ri shakllantirish, nutqiy nuqsonlar, xususan, kodlarni aralashtirish va lingvistik interferensiyaning oldini olish hamda ta'lim sifatini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Maqolada o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida maktab o'quvchilarining nutqiy tafakkuri, til tizimlarini idrok etish mexanizmlari va ularning psixolingvistik xususiyatlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** bilingvizm, psixolingvistika, boshlang'ich ta'lim, lingvistik interferensiya, mental leksikon, kognitiv rivojlanish, o'zbek-rus tillari, kodlarni aralashtirish, nutqiy tafakkur.

**Abstract:** This article analyzes the speech development processes of primary school students in a mixed Uzbek-Russian language environment from a psycholinguistic perspective. Bilingualism is interpreted not merely as proficiency in two languages, but as a complex psycholinguistic phenomenon characterized by the interaction, coexistence, and, in some cases, conflict of two different linguistic systems within the human mind. In the context of New Uzbekistan, studying the psycholinguistic characteristics of students' speech, ensuring the proper formation of linguistic competencies, preventing speech disorders such as code-switching and linguistic interference, and improving the quality of education are of significant scientific and practical importance. The article examines the speech thinking, mechanisms of language system perception, and psycholinguistic features of school students under the conditions of Uzbek-Russian bilingualism.

**Key words:** bilingualism, psycholinguistics, primary education, linguistic interference, mental lexicon, cognitive development, Uzbek-Russian languages, code-switching, speech thinking.

**Аннотация:** В данной статье с психолингвистической точки зрения анализируются процессы речевого развития учащихся начальных классов в смешанной узбекско-русской языковой среде. Билингвизм рассматривается не только как владение двумя языками, но и как сложное психолингвистическое явление, характеризующееся взаимодействием, сосуществованием и в отдельных случаях столкновением двух различных языковых систем в сознании человека. В условиях Нового Узбекистана изучение психолингвистических особенностей речи учащихся, формирование у них правильных языковых компетенций, предупреждение речевых нарушений, в частности смешения кодов и лингвистической интерференции, а также повышение качества образования приобретают важное научно-практическое значение. В статье анализируются речевое мышление школьников, механизмы восприятия языковых систем и их психолингвистические особенности в условиях узбекско-русского билингвизма.

**Ключевые слова:** билингвизм, психолингвистика, начальное образование, лингвистическая интерференция, ментальный лексикон, когнитивное развитие, узбекско-русские языки, смешение кодов, речевое мышление.

## KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan islohotlar boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning huquqiy va ma'naviy asosini tashkil etadi. Psixolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, til shunchaki aloqa vositasi emas, balki shaxsning milliy o'zligini shakllantiruvchi va uning tafakkur olamini modellashtiruvchi muhim kognitiv tizim hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda nutqiy faoliyatning shakllanishi bevosita ijtimoiy muhitdagi til nufuzi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda uning

jamiyatning barcha sohalarida faol qo'llanilishi bolalarda ona tiliga nisbatan psixologik sadoqat va motivatsiyani shakllantiradi. Bu esa bilingvizm (o'zbek-rus) sharoitida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ona tilimiz - milliy ruhimizning timsoli, ma'naviyatimiz asosidir". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli Farmoniga muvofiq, mamlakatimizda til siyosatini yuritishning yangi bosqichi boshlandi. Mazkur hujjat bolaning ichki nutqi davlat tili me'yorlari va milliy-madaniy qadriyatlar asosida shakllanishini, keyinchalik esa boshqa tillarni, xususan, rus tilini tizimli ravishda o'zlashtirishi uchun mustahkam kognitiv baza yaratilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, davlat tili maqomi o'quvchilarda lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish orqali ularni o'zbek va rus tillari o'rtasidagi farqlarni ongli ravishda idrok etishga yo'naltiradi. Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy hayot va zamonaviy taraqqiyotning jadal rivojlanishi sharoitida rus tili O'zbekistonda muhim kommunikativ vosita sifatida o'z mavqeini saqlab kelmoqda. Shu sababli ko'plab o'zbek oilalari farzandlarini rusiyzabon bog'cha va maktablarga berishni afzal ko'rmoqda yoki aksincha holatlar ham kuzatilmoqda. Bunday sharoitda bolaning ongida ikki xil til tizimining qanday faoliyat yuritishi, ularning o'zaro ta'siri hamda psixolingvistik mexanizmlarini o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bilingvizm va uning psixolingvistik tabiati jahon hamda respublika tilshunosligida keng tadqiq etilgan fundamental ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Dastlab bilingvizmning psixologik va lingvistik jihatlari Lev Shcherba, Uriel Weinreich hamda Einar Haugen kabi xorijiy olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, L.V. Shcherba o'z ilmiy qarashlarida "sof" (koordinativ) va "aralash" (subordinativ) bilingvizm tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritib, ikki tillilikning tafakkur rivojiga ta'sirini chuqur tahlil qilgan.

O'zbekiston tilshunosligi va psixologiyasida bilingvizm muammolari, xususan, o'zbek va rus tillarining o'zaro aloqasi masalalari S.Inomxo'jayev, A.Rafiyev, R.Yusupov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Psixolingvistik jihatlari esa E.G'oziyev va B.Akramovlarning ilmiy ishlanmalarida muayyan darajada yoritilgan.

Biroq XXI asrning birinchi choragida raqamli texnologiyalar va internet muhitining kengayishi natijasida maktab o'quvchilari nutqida kuzatilayotgan translingvistik hodisalar hamda ularning psixolingvistik determinantlari yangi ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, ikki tillilik sharoitida o'quvchilarning nutqiy tafakkuri, kodlarni aralashtirish jarayonlari, lingvistik interferensiya va mental leksikonning shakllanish mexanizmlarini kognitiv-psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqini o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning empirik asosini Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi 52-son umumta'lim maktabining o'zbek va rus tillarida ta'lim oluvchi 1-4-sinf o'quvchilari (jami 120 nafar respondent) tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, so'rovnoma va nutqiy eksperiment metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. **Psixolingvistik assotsiativ eksperiment** - o'quvchilarga ma'lum stimullar (so'zlar) taqdim etilib, ularning ongida yuzaga keladigan verbal reaksiyalarning tezligi va xususiyatlari o'rganildi.
2. **Komparativ (qiyosiy-tipologik) tahlil** - o'quvchilarning o'zbek va rus tillaridagi nutqiy konstruksiyalari o'zaro solishtirilib, uchraydigan lingvistik xatolar hamda interferensiya holatlari tasniflandi.
3. **Kuzatish va nutqiy diskurs tahlili** - dars va darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilarning erkin muloqoti audioyozuv vositalari orqali qayd etilib, nutqdagi lingvistik interferensiya darajasi tahlil qilindi.

O'tkazilgan psixolingvistik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, zamonaviy o'quvchilar muhitida bilingvizmning bir necha shakllari mavjud bo'lib, ulardan eng asosiylari koordinativ (teng huquqli) va subordinativ (bir tilning ikkinchi tilga bo'ysunishi asosidagi) ikki tillilik hisoblanadi. Shu bilan birga, bugungi urbanistik muhitda "aralash bilingvizm" (mixed bilingualism) shaklining ustunlik qilayotgani kuzatildi. Mazkur holatda o'quvchilar nutqida o'zbek va rus tillari elementlarining bir-biriga qorishib ketishi, kodlarni aralashtirish va translingvistik birliklarning faol qo'llanilishi namoyon bo'ladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Lingvistik interferensiya va uning psixologik sabablari. Interferensiya - bir til qonuniyatlarining ikkinchi til nutq jarayoniga beixtiyor ko'chishi natijasida yuzaga keladigan psixolingvistik hodisa hisoblanadi. O'zbek-rus bilingvizmi sharoitida ushbu hodisa asosan uchta sathda namoyon bo'ladi.



**Fonetik interferensiya.** Rusiyzabon o'quvchilarning o'zbek tilidagi qattiq va yumshoq unlilarni, shuningdek, o'zbek tiliga xos "q", "g", "h", "x" tovushlarini talaffuz qilishda qiyinchilikka duch kelishi yoki aksincha, o'zbek o'quvchilarining rus tilidagi urg'u (ударение) va reduksiya qonuniyatlarini buzishi fonetik interferensiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

**Leksik-semantik interferensiya.** Ushbu holat bilingvistik nutqda eng ko'p uchraydigan xususiyatlardan biri bo'lib, o'quvchi nutq jarayonida ongidagi "mental leksikon"dan tezroq faollashgan so'zni qo'llaydi. Masalan: "Men bugun maktabga пешком keldim" yoki "U darsga опоздать qildi" kabi nutqiy birliklarda ikki til elementlarining qorishib ketishi kuzatiladi.

**Grammatik (sintaktik) interferensiya.** O'zbek va rus tillarining tipologik tuzilishi bir-biridan farq qiladi: o'zbek tili agglutinativ tillar oilasiga, rus tili esa flektiv tillar oilasiga mansubdir. Rus tilida gap tarkibidagi so'zlar tartibi nisbatan erkin bo'lsa, o'zbek tilida kesim qat'iy ravishda gap oxirida keladi. Shu sababli bilingual o'quvchilar ruscha tafakkur asosida o'zbekcha gapirganda sintaktik tartib buzilishi kuzatiladi. Masalan: "Men ko'rdim kecha qiziqarli kinoni" gapi rus tilidagi "Я видел вчера интересный фильм" konstruksiyasi asosida shakllangan sintaktik interferensiya namunasi hisoblanadi.

**Assotsiativ eksperiment natijalari.** O'quvchilarning kognitiv reaksiyalarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan assotsiativ tajribada ularga o'zbek va rus tillarida stimuly-so'zlar taqdim etildi. Jumladan, "Maktab / Школа" stimulgacha berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, rus tilida ta'lim olayotgan o'zbek o'quvchilarining kognitiv tizimida tushunchalar ko'proq rus tilidagi madaniy andozalar asosida shakllanmoqda. Ularda assotsiativ reaksiyalar tezligi rus tilida o'rtacha 1,2 soniyani tashkil etgan bo'lsa, ayni stimulyning o'zbekcha muqobiliga javob berish tezligi 2,5 soniyagacha cho'zilgan. Mazkur holat ongdagi tushunchalar va ramzlar tizimi dominant tilda tezroq faollashishini ko'rsatadi.

O'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish zamonaviy maktab ta'limida mavjud muammolar hamda ularning yechimlarini aniqlash imkonini beradi. Muhim konseptual xulosalardan biri shundan iboratki, zamonaviy o'quvchilarda sof koordinativ bilingvizimga nisbatan kodlarni aralashtirish (code-switching) va translingvistik amaliyotlar ko'proq uchramoqda. Ya'ni, o'quvchi muloqot jarayonida fikrini ravon va tez ifodalash maqsadida ikki til resurslaridan bir vaqtning o'zida, hatto bitta gap doirasida foydalanadi.

Mazkur holatning psixologik sababi sifatida o'quvchi ongidagi axborot yuklamasining ortishi hamda raqamli platformalar - YouTube, TikTok, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan rus va ingliz tilidagi kontentni muntazam iste'mol qilishi ko'rsatish mumkin. Natijada o'quvchining ichki nutqi (мышление) gibrid shaklga ega bo'lib bormoqda. Bu esa pedagoglardan tillarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki ularning o'zaro psixolingvistik ta'sirini hisobga olgan holda, qiyosiy-metodik yondashuv asosida o'qitishni talab qiladi.

Taniqli metodist olim, pedagogika fanlari doktori, professor Safo Matchonov ta'kidlaganidek: "Boshlang'ich sinf o'quv dasturida ona tili va o'qish fanlari bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini rivojlantirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Ushbu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, matnlarni kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Ona tilini o'qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatdagi o'rni va vazifasi bilan belgilanadi. Til - aloqa vositasi bo'lib, inson fikr va mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositasida ifodalangan fikrni anglaydi. Ona tili fani o'quvchilarni fikrni bayon qilish va uni anglab olish faoliyatiga tayyorlaydi. Tilni bilish faqat grammatik qoida va ta'riflarni o'zlashtirish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravon va savodli ifodalashdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim".

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi o'quvchilar shaxsiyati va intellektual salohiyatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Psixolingvistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ikki tillilik sharoitida o'quvchilar nutqi yuqori darajadagi moslashuvchanlik (fleksibillik) bilan bir qatorda, lingvistik interferensiya, kodlarni aralashtirish va translingvistik hodisalar kabi murakkab kognitiv jarayonlarni ham boshdan kechirmoqda.

Pedagogik hamda psixolingvistik jarayonlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- maktab darsliklari va o'qitish metodikasida bilingual o'quvchilarning kognitiv xususiyatlarini hisobga oluvchi qiyosiy mashqlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- o'quvchilarning so'z boyligini (mental leksikonini) har ikki tilda mutanosib ravishda rivojlantirish maqsadida turli to'garaklar, nutqiy treninglar va interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish;

- ta'lim jarayonida madaniyatlararo muloqot hamda nutq sotsiologiyasi omillarini hisobga olgan holda, o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga rioya qilish ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish va rivojlantirish.

Shuningdek, bilingvistik muhitda ta'lim olayotgan o'quvchilarning psixologik va nutqiy rivojlanishini muntazam monitoring qilish, ularda uchraydigan interferensiya holatlarini ilmiy asoslangan metodlar yordamida korreksiya qilish ham muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning til kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati va kognitiv rivojlanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. O'zbek tili sotsiolingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2012. – 232 b.
2. G'oziyev E. G'. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010. – 352 b.
3. Matchonov S. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar (Darslik). – Toshkent: Zebo Print, 2026. – 341 b.
4. Mamatov J. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2019. – 164 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. (2019-yil 21-oktyabr, PF-5850-son). // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019-y., 06/19/5850/3940-son.
6. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. - Москва: Наука, 1974. - 428 с.
7. Usmanova Sh. Sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2020. – 168 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.